



INGLIZ TILIDAGI MEDIAMATNLARDA UCHRAYDIGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Baxrinova Difuza Yorqin qizi

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti 2-bosqich magistranti

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-May 2023 yil

Ma'qullandi: 05-May 2023 yil

Nashr qilindi: 10-May 2023 yil

KEY WORDS

*Leksik-semantik, frazeologik
birliklar, mediamatnlar, so'z
birikmalari.*

ABSTRACT

Mazkur maqolada ingliz tilidagi mediamatnlarda uchraydigan frazeologik birliklarning leksik-semantik tarkibi, xususiyatlari va tildagi rang-barangligi to'g'risida ayrim ma'lumotlar taqdim etildi. Mazkur birliklar tilning ham yozma, ham og'zaki shakllarida tilning eng jozibador ajralmas bir qismi tashkil etadi. Tilning boyishi va yanada taraqqiy etishida frazeologik birliklarning hissasi ulkan ekanligini ko'rish mumkin.

Barcha dunyo tillari qatori, ingliz tili va uning tarkibida frazeologik birliklarning o'rni beqiyosdir. Boshqacha qilib aytganda, frazeologiya har qanday tilning ajralmas qismi va o'ziga xos xazinasiga sifatida tilning shakllanishida beqiyos hissaga ega. Frazeologiya atamasiga fikrlarimizni dalillar asosida aniq va tushunarli bo'lishi uchun, izoh berib o'tib ketishni lozim topdik. Frazeologiya yunoncha frases – ifoda, logos – ta'lim, turg'un xarakterga ega bo'lgan murakkab til birliklari haqidagi fan hisoblanadi. Longman taqdim etadiki: "the way that words and phrases are used in a language", (Ldoce, 2009) ya'ni fraza va leksemalar tilning muayyan bir qismini tashkil etishi va birgalikda ishlatilishini anglash mumkin. Frazeologik birliklarning shakllanish va tarkibi, tilshunos olimlar tomonidan ko'plab muhokama va munozaralarga sabab bo'luvchi asosiy omillardan biridir. Xususan, tilshunos olim B.Yo'ldoshev fikriga ko'ra: "Frazeologik birikmalar asosan so'zlar birikmasidan iborat, boshqacha aytganda frazeologizmlar tilning alohida birligi bo'lib, tuzilishiga ko'ra erkin bog'lanma yoki gapga teng", (Yo'ldoshev, 1992). Frazeologik birliklarning paydo bo'lishi va ingliz tilini rivojlanishida sezilarli ta'sir ko'rsatishi to'grisidagi qarashlar va izlanishlar ichida eng maqbul variant sifatida, XX asrda ilmiy til birligi sifatida rivojlana boshlagani olindi (Knappe & Gabriele, 2004). Bugungi kunga kelib, mazkur mavzu ko'plab til olimlari tomonidan o'rganilmoqda. Ushbu til birligining dolzarbligi, xususiyati va o'ziga xosligi jihatidan bir qator izlanishlar olib borilmoqda. Mazkur maqolada frazeologik birliklarning leksiksemantik tarkibi, xususiyatlari va tildagi rang-barangligi to'g'risida ayrim ma'lumotlar taqdim etildi. Tilshunos professor Kunin ta'kidlashicha: "Frazeologik birliklar qisman yoki to'liq ma'nosi o'zgaradigan so'zlar guruhi hisoblanadi", (Kunin, 1996). Yuqordagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, ayrim frazeologik birliklar o'z tarkibidagi leksemalarning tarjimai saqlangan holda va yana ayrimlarining esa tarjimai butunlay o'zgargan holda ishlatiladi. Odatda, ingliz tilida ma'nosi qisman o'zgargan frazeologik birliklar kamdan-kam uchraydi. "Kick the bucket" birikmasi so'zma-so'z tarjima qilinganda "chelakni tepish" holatida tarjima qilinadi. Aslida esa, "hayotdan ko'z yummoq"

ya'ni vafot etmoq ma'nosini beruvchi frazeologik birlik sifatida ishlatiladi. Mazkur birlikdagi "kick", "the", "bucket" so'zlari to'liqligicha o'z ma'nosini yo'qotgan holda yangi bir ma'no hosil qiladi. Aynan mana shu holat tilning va shu tilda namoyon bo'ladigan nutqning yanada jozibadorligini oshiradi. Qolaversa, mazkur birikma tarkibidagi leksemalar yangi ma'nodorlik hosil qilgan holda til lug'atining yanada boyishiga asos bo'la oladi. Aksariyat hollarda, davra suhbatlarida, og'zaki imtixonlarda ko'p uchraydigan birikma mavjud. Mazkur frazeologik birlik salbiy bo'yoqdor hisoblanib, nafarqat ko'cha-ko'yda, balki adabiy manbalarda ham uchrab turadi. "Don't beat the bush", to'g'ridan to'g'ri sinxron tarjima qilinganda shoxni urmang deb tarjima qilish mumkin, lekin aynan inglizlar ko'zlagan mazmun aksincha, "aravani quruq olib qochmang" deb tarjima qilinadi va shunday vaziyatlarda ishlatiladi. So'zargan narsani gapirish o'rniga, mavzuga aloqasi bo'lmagan gap gapirilganda aynan mazkur birikma qo'llaniladi.

Demak, aksariyat frazeologik birikmalarda so'z qurilishi va ma'no mazmun bog'liqligi qisman mavjud bo'lsa, ayrimlarida tubdan farq qilishini kuzatish mumkin. Bu esa tilning lug'aviy boyligini ko'rsatadi. Abdug'aniyevaning fikriga ko'ra: "Frazeologik birliklar tilning o'ziga xosligini, betakrorligini, lug'aviy boyligini ifodalaydi", (Abdug'aniyev, 2014). Frazeologik birliklar o'z tarkibiy qismlaridagi grammatik shaklining barqaror ekanligi bilan tavsiflanadi. Frazeologik birliklarning har bir a'zosi o'zboshimchalik bilan o'zgartirib bo'lmaydigan ma'lum grammatik shaklda takrorlanadi. Misol uchun: "ups and downs" birikmasini olaylik. Mazkur birikma "yutuqlar va kamchiliklar" deb tarjima qilinadi. Ayni shu birikmada ingliz tilidagi otlarning ko'plik shaklini yasovchi "s" qo'shimchasi tushurib qoldiriladigan bo'lsa, ma'no butunlay o'zgarib ketadi. "up and down" u yoqdan bu yoqqa holatida tarjima qilinib, holat ravishi ifodalab keladi. "Sof ish haqi" ma'nosini beruvchi "take-home pay" birikmasidagi home so'zini uning alternativlari – house, apartment, dwelling yoki take so'zini get, reach kabi variantlari bilan almashtirib ishlatish mumkin emas, chunki mazkur birikmalar, Shekspir davri adabiyotida ko'plab o'zlashtirilgan birikmalar bo'lib, hozirga qadar tug'un ya'ni o'zgarmas holatda ishlatib kelinadi. Boshqacha qilib aytganda frazeologiya, rang-barang til materiallarini birlashtirganligi va aksariyat frazeologik birliklarning chegaralari, qolipi aniq belgilanmaganligi bilan izohlanadi. Yana bir muhim jihat, bu frazeologik birliklarning boshqa til birliklaridan farqli jihati hisoblanadi. Frazeologik chatishmalarning boshqa frazeologik birliklardan farqli jihatlari aksariyat adabiyotlarda quyidagicha namoyon etilgan:

- Ba'zan tarkibida arxaizmlarning qo'llanilishi;
- Sintaktik jihatdan yaxlitligi;
- Komponentlari tarkibining turg'unligi;
- Komponentlar leksik ma'nolarining umuman ahamiyatini yo'qotganligi;

Vinogradov tahliliga ko'ra: "frazeologik birliklarning uchinchi turi bo'lmish frazeologik qo'shilmalar ham turg'un ko'chma ma'noga asoslangan birlik bo'lib, boshqa frazeologik birliklardan asosiy farqi – tarkibidagi komponentlaridan biri, o'z lug'aviy ma'nosida qo'llanishidir", (Vinogradov, 1977).

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mazkur birliklar tilning ham yozma, ham og'zaki shakllarida tilning eng jozibador ajralmas bir qismi tashkil etadi. Tilning boyishi va yanada taraqqiy etishida frazeologik birliklarning hissasi ulkan ekanligini ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ilmiddinovich, K. S. (2022). Integrating 21st Century Skills into Teaching Medical Terminology. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 9, 114-117.
2. Ilmiddinovich, K. S. (2021). The methodologies of learning english vocabulary among foreign language learners. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 501-505.
3. Ilmiddinovich, K. S. (2020). Methods Of Teaching English To Young Learners. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(11), 65-69.
4. Sarvarbek Ilmiddinovich Kuziev MODERN METHODS OF TEACHING ENGLISH LANGUAGE AT MEDICAL UNIVERSITIES // Academic research in educational sciences. 2022. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/modern-methods-of-teaching-english-language-at-medical-universities> (дата обращения: 10.05.2023).
5. Kuziev, S. (2022). AT ENGLISH CLASSES USING APPROACHES AND METHODS OF ON TEACHING SPECIAL TERMINOLOGY IN MEDICAL UNIVERSITIES. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 2(12), 265-269.
6. Кузиев, С. И. (2020). COMMUNICATION AMONG PHYSICIANS AND HEALTHCARE ASSOCIATES: THE ROLE AND RANK OF MEDICAL TERMINOLOGY IN SURGERY, PUBLIC HEALTH AND THE HISTORY OF MEDICINE. *Вестник науки и образования*, (13-3), 29-31.
7. Кузиев Сарварбек Илмиддинович Общение между врачами и медицинскими работниками: роль и ранг медицинской терминологии в хирургии, здравоохранении и истории медицины // *Вестник науки и образования*. 2020. №13-3 (91). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/obschenie-mezhdu-vrachami-i-meditinskimi-rabotnikami-rol-i-rang-meditinskoy-terminologii-v-hirurgii-zdravoohranenii-i-istorii> (дата обращения: 10.05.2023).
8. Ilmiddinovich, K. S. (2020). Online evaluating the language learners on the platforms of the social networking services and delivery people. *International Journal of Research in Economics and Social Sciences (IJRESS)*, 10(11).